e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/yh00xb65

"MILLIY DAVLAT", "SUVERENITET" VA "MUSTAQILLIK" TUSHUNCHALARINING SIYOSIY-FALSAFIY MAZMUN-MOHIYATI

Hamroyev Sanjar Samiyevich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, doktorant (PhD).
e-mail: s.hamroyev28@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-7775-8483

Annotatsiya.
Mazkur maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylangan milliy davlatlar suverenitetini mustahkamlash jarayoni yoritilgan. Buning uchun, avvalo, milliy davlat, suverenitet va mustaqillik tushunchalarining siyosat falsafasida qanday mazmun-mohiyat kasb etishi, qo'llanilish doirasi hamda o'zaro farqli jihatlarini aniqlash talab etiladi. Ma'lumki, falsafa har bir tushunchaning ma'nosi va tub mohiyatini kategoriya sifatida talqin qiladi. Shu sababli yuqorida keltirilgan tushunchalarni tahlil qilish ular bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va keyinchalik bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: milliy davlat, suverenitet, mustaqillik, millat, davlat suvereniteti, xalq suvereniteti, millat suvereniteti.

ПОЛИТИКО-ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «НАЦИОНАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО», «СУВЕРЕНИТЕТ» И «НЕЗАВИСИМОСТЬ»

Хамроев Санжар Самиевич
Ташкентский химико-технологический институт, докторант (PhD).

Аннотация.
В данной статье рассматривается процесс укрепления суверенитета национальных государств, ставший одной из актуальных проблем современности. Для этого прежде всего необходимо определить содержание и сущность понятий «национальное государство», «суверенитет» и «независимость» в философии политики, сферы их применения, а также выявить различия между ними. Известно, что философия рассматривает значение и глубинную сущность каждого понятия в качестве философской категории. В связи с этим анализ вышеуказанных понятий имеет важное значение для выявления и последующего устранения возможных проблем, связанных с ними.

Ключевые слова: национальное государство, суверенитет, независимость, нация, государственный суверенитет, народный суверенитет, национальный суверенитет.

THE POLITICAL AND PHILOSOPHICAL CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPTS OF "NATION-STATE," "SOVEREIGNTY," AND "INDEPENDENCE"

Hamroyev Sanjar Samiyevich
Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD Doctoral Student.

Abstract.
This article examines the process of strengthening the sovereignty of nation-states, which has become one of the pressing issues of the modern era. To this end, it is first necessary to determine the content and essence of the concepts of "nation-state," "sovereignty," and "independence" within political philosophy, their scope of application, and the distinctions between them. Philosophy is known to interpret the meaning and fundamental essence of each concept as a philosophical category. Therefore, analyzing the aforementioned concepts is of great importance for identifying and subsequently addressing potential problems associated with them.

Keywords: nation-state, sovereignty, independence, nation, state sovereignty, popular sovereignty, national sovereignty.

Kirish. Siyosiy tashkilot sifatida davlat uchun eng muhim qadriyat bu uning mustaqilligidir. Mustaqil siyosat, mustaqil iqtisodiyot, mustaqil tafakkurli xalq bilan davlat milliy o'zligini ta'minlaydi. Mustaqillikning mutlaqligi, ya'ni absolutligini ifodalovchi xalqaro miqyosda e'tirof etiladigan tushuncha esa bu suverenitetdir. Suverenitet davlat mustaqilligining eng oliy shakli, ya'ni yuqori darajasi, davlatning ichki va tashqi siyosatdagi hokimiyatining mutlaqligini ifoda etuvchi tushunchadir. Bu azaliy o'zgarmas qoida xalqlarni uni yo'qotib qo'ymaslikka, fuqarolarni esa o'z davlatini himoya qilishga undaydi. Inson uchun suv, havo singari muhim ne'matlar qay darajada oliy ahamiyat kasb etsa, suverenitet ham davlat uchun shu darajadagi oliy ne'matdir. Chunki inson suvsiz, havosiz muayyan daqiqalargacha yashay oladi, xolos. Davlat ham suverenitetsiz tom ma'noda o'z mavjudligini yo'qotadi. Shuning uchun ham azaldan to hozirga qadar va bundan keyin ham davlatlar o'z suverenitetini o'zining mavjudlik mezoni sifatida mustahkamlash uchun kurashda davom etaveradi.

ISSN 3060-5059 (Online)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ma'lumki, har bir davlatning o'ziga xos milliy mazmuni bo'lib, bir-birini takrorlamas xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Tarix bunday rang-baranglik, o'ziga xosliklar bir-birini to'ldirib, taraqqiyotga xizmat qilishini bir necha bor isbotlagan. Bugun davlatchilikning keng tarqalgan turi milliy davlatlar bo'lib, unga ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan, «Milliy davlat umumiy ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, tarixiy, til va hududiy birlikka ega bo'lgan hamda shu asosda umumiy g'oya va qadriyatlar tizimiga tayangan individlar manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi industrial taraqqiyot davrida shakllangan jamiyatning siyosiy tashkilotidir» [1; B. 35]. Muallif bu ta'rifi orqali milliy davlatning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri baholagan, biroq uni industrial taraqqiyot davri bilan cheklaganligi munozaralidir. Chunki sanoat asrigacha ham milliy davlatlar u yoki bu ko'rinishda mavjud bo'lganligi tarixiy fakt hisoblanadi. Masalan, Xitoy, Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa ko'plab davlatlar qadimdan shakllanib, o'zining milliy xususiyatlarini saqlab kelmoqda.

Rossiyalik tarixchi olim V. Engel esa «milliy davlat» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «Milliy davlat – bu butun sivilizatsiyaning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi bormasdan, maqsadi o'z millatining manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lgan muayyan titul millatning davlatidir» [2; B. 15]. Bu yerda muallif milliy davlat mohiyatini qisqa va lo'nda tarzda bayon etgandek tuyuladi, biroq undagi ba'zi ziddiyatli fikrlarga aniqlik kiritib o'tish joiz. Masalan, «butun sivilizatsiyaning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi bormaslik» haqidagi fikr munozaralidir. Chunki sivilizatsiya yaratgan millatlar bir paytning o'zida uning qadriyat sifatida saqlanib qolishidan va yanada taraqqiy etishidan manfaatdordir. Bu ularga ulkan moddiy va ma'naviy g'urur olish imkonini beradi. Qanday qilib bu sivilizatsiyani yo'q qilmoqchi bo'lgan dushmanlarga qarshi kurashmaslik mumkin? Axir millat barhayotligini ta'minlovchi omillardan biri uning qadriyatlariga sodiqligi emasmi?! Bundan tashqari, muallif «o'z millatining manfaatlarini himoya qilish» jumlasi bilan jamiyatdagi boshqa millatlar manfaatlari ham borligini nazardan chetda qoldirgandek tuyuladi. Lekin keyingi o'rinlarda «bu yerda millat deganda etnos emas, balki madaniy, tarixiy va siyosiy aloqalar bilan birlashgan ma'lum bir kishilar jamoasi nazarda tutilgan»ligini ta'kidlaydi.

Suverenitet tushunchasini dastlab XVI asrda fransuz ma'rifatparvari Jan Boden davlatning mutlaq va doimiy hokimiyatini ifodalash uchun ishlatgan [3; B. 19]. Uning qarashlariga muvofiq, suverenitet faqat davlatga tegishli bo'lib, cheklanmagan, bo'linmas, hokimiyatning ajralmas asosiy belgisi ekanligi e'tirof etiladi. Garchand oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, Bodenning fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rishimiz mumkin. Faqat bugun globallashuvning shiddati davlatlar hayotida suverenitetga nisbatan boshqacha qarashlarni ham paydo qilmoqda. Xalqaro aloqalar va hamkorlikning mustahkamlanishi davlatlar suverenitetini o'z xohishlariga binoan cheklashlariga olib kelmoqda. Bu esa suverenitetning cheklanmasligi haqidagi qarashlarga muvofiq kelmaydi. Rossiyalik olim V. M. Gessen buni chiroyli tarzda tavsiflagan: «Ilgari hukmdorlar suverenitet uchun kurashishgan, endi professorlar u haqida bahslashmoqdalar. Ilgari uni himoya qilish uchun qonlarini ham ayamagan bo'lishsa, endi buni tushuntirishga siyohlarini ayashmayapti» [4; B. 56]. Gessenning kinoya bilan aytilgan fikrlari chindan ham hozirda o'z isbotini topayotganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki endilikda faqat «qog'oz»dagina suvereniteti tan olingan bir qator davlatlar mavjudligi oydinlashmoqda va ularda istiqomat qiluvchi xalqlar, millatlarning keyingi taqdiri masalasi ham so'roq ostida qolmoqda.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida: «Suverenitet (fr. souverainete – oliy hokimiyat) – davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi» [5; B. 412], deb ta'riflanadi hamda uning davlat suvereniteti, milliy suverenitet va xalq suvereniteti kabi shakllari mavjudligi e'tirof etilgan. Unga muvofiq: «Davlat suvereniteti – davlat hokimiyatining davlat ichidagi ustunligi va uni tashqi muhitda, ya'ni xorijiy hokimiyatni istisno qiluvchi davlat hokimiyatlari – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining hududda to'la amal qilishi hamda xalqaro aloqalarda davlatning xorijiy davlat hokimiyatlaridan mustaqilligi (davlat tomonidan suverenitetini cheklashga o'z xohishi bilan rozilik berilgan hollar bundan mustasno); milliy suverenitet – millatning to'la hokimligi, uning siyosiy erkinligi, o'z milliy hayotini belgilashning real imkoniyatlari va birinchi galda mustaqil davlatning ajralib chiqishi va shakllanishini siyosiy jihatdan o'zi belgilashga layoqatliligi; xalq suvereniteti – xalqning to'la hokimligi, ya'ni xalq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vositalar orqali jamiyat va davlat ishlarida qatnashish huquqiga ega bo'lishi» [5; B. 413], deya ta'riflangan. Ko'rinib turganidek, yuridik tomondan suverenitetni tasniflashda milliylik prinsipiga ham amal qilingan. Suverenitetning uchta shakli ham bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to'ldirishga xizmat qiladi. Bunda ustuvorlik xalq suverenitetiga beriladi, lekin xalq ham muayyan millat vakillaridan iboratligini, o'zining milliy qadriyatlari borligini, qolaversa, o'z vakillari orqali yoki bevosita hokimiyatni amalga oshirishini inobatga olsak, davlat suvereniteti bilan chambarchas bog'liqligini ko'ramiz. Chunki aksar demokratik konstitutsiyalarda «xalq – davlat hokimiyatining birdan bir manbai» ekanligi ta'kidlangan. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 7-moddasida ham ushbu norma mustahkamlangan. Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida esa: «Milliy suverenitet xalqniki bo'lib, xalq uni o'z vakillari va referendum orqali amalga oshiradi», deya e'tirof etilgan. Suverenitet haqida gap ketganda, mustaqillik tushunchasiga ham to'xtalib o'tish joizdir. Chunki mustaqillik suverenitetning o'zagi, negizidir. Aksar adabiyotlarda ushbu tushunchalarni tasniflashda ularni bir-biridan ayro holda ifodalamaydilar. Zero, suverenitet va mustaqillik mohiyatan bir-biridan farq qilmaydi. «Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati»da mustaqillikka quyidagicha ta'rif beriladi: «Mustaqillik (arab. – tobe va qaram bo'lmagan holat, ixtiyori o'zidalik) – insonning erkin va ozod ravishda, o'z ixtiyori bilan boshqalarga bo'ysunmasdan ish yurita olishi» [6; B. 224]. Albatta, bu yerda, avvalo, shaxs erkinligi nazarda tutilgan, lekin buni davlat yoki milliy mustaqillik sifatida ham e'tirof etish o'rinlidir. Chunki har qanday davlat, avvalo, insonlardan tarkib topgan jamiyat asosida paydo bo'lishini inobatga olsak, davlat mustaqilligi yoki milliy mustaqillik deganda, millatning erkin va ozod ravishda, o'z ixtiyori bilan boshqalarga bo'ysunmasdan ish yurita olishi anglashiladi. Suverenitet va mustaqillik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi ham shu yerda namoyon bo'ladi. Lekin huquqiy tomondan bu ikki tushunchaning o'z qo'llanilish o'rni bo'lib, bunda, shubhasiz, suverenitet yaqqol ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab: birinchidan, har qanday mustaqillik suverenitet darajasiga ko'tarila olmasligi mumkin. Chunki ba'zi mustaqil subyektlar faqat muayyan

sohalardagina mustaqil bo‘lishi mumkin. Suverenitet esa barcha sohalarda to‘la mustaqillikni anglatadi. Misol uchun, federativ davlatlar tarkibidagi subyektlar faqat ichki siyosatdagina mustaqillikka ega bo‘lib, tashqi siyosatni mustaqil amalga oshira olmaydi. Buni Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi Chechenistоn, Tatariston, Dog‘iston kabi subyektlar misolida ko‘ramiz; ikkinchidan, suverenitet maqomini olish uchun qator shart-sharoitlar talab etiladi. Misol uchun, davlat suvereniteti ichki va tashqi siyosatda mustaqillikni, xalqi himoyasini ta’minlashni, urush va tinchlik masalalarini hal qilishni, hududining daxlsizligini, chegaralar xavfsizligini, qonunlarni qabul qilish, sud hokimiyatini amalga oshirish, davlat ramzlariga, mustaqil moliya, pul-kredit tizimiga ega bo‘lish kabilarni taqozo qiladi. Agar ular ichidan birontasida kamchilik bo‘ladigan bo‘lsa, ushbu subyektni to‘la suveren deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Umuman olganda, bugungi kun jahon geosiyosatida «mutlaq suverenlik» tobora nisbiy ahamiyat kasb etmoqda, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki jahonda har bir davlat qaysidir xalqaro tashkilot yoki muayyan shartnomaviy tashkilotlar, alyanslarga kirish orqali o‘z suverenitetini «ixtiyoriy-majburiy» tarzda o‘sha tashkilotlarga taqdim qilmoqda yoki cheklamoqda va bunga obyektiv hodisa sifatida qaralmoqda. Bunda esa globallashuv jarayonlarining ta’sirini ko‘rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalari asosida» [7; B. 3] yaratilgan bo‘lib, uning birinchi bobi «Davlat suvereniteti» deb nomlangan. Ushbu bobda har bir suveren davlatga xos bo‘lgan belgilar, ya’ni davlat shakli, davlatning mohiyati, hududiy tuzilishi va yaxlitligi, rasmiy davlat tili, davlat ramzlari va poytaxti tushunchalari mustahkamlangan. Jumladan, uning 1-moddasida: «O‘zbekiston – suveren demokratik respublika» [7; B. 4] ekanligi, 17-moddasida tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligiga asoslanishi qayd etilgan. Bundan anglashiladiki, suverenitet davlatning alohida xususiyati bo‘lish bilan birga, davlatning muhim belgisi hamdir. Chunki davlat suvereniteti orqali davlat hokimiyatining oliyligi, ustuvorligi nazarda tutiladi. Shuning uchun ham har qanday davlat o‘z suverenitetini u yoki bu ko‘rinishda, avvalo, o‘zining asosiy qonunida mustahkamlab qo‘yadi.

MUHOKAMA. Milliy davlat muayyan bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi asosida qurilgan siyosiy tizim bo‘lsa, suverenitet davlat hokimiyatining oliy va mustaqil ekanligini, mustaqillik esa boshqa davlatlarga siyosiy va huquqiy jihatdan tobe bo‘lmaslikni anglatadi. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo ularning siyosiy va falsafiy mazmunida o‘ziga xos farqlar mavjud.

1648-yilda o‘rnatilgan Vestfaliya tizimiga ko‘ra, milliy davlat, ya’ni inglizcha “Nation-state” – bir etnik yoki madaniy millatning siyosiy chegaralari davlat chegaralari bilan mos kelishidir. Bunda davlat faqat hudud emas, balki umumiy til, tarix va madaniyatga ega bo‘lgan xalqning siyosiy ifodasi hisoblanadi. Vestfaliya tizimiga ko‘ra, har bir davlat, birinchi navbatda, monarx yoki hukumat o‘z hududida mutlaq mustaqildir, ya’ni suverendir; ikkinchidan, uning ichki ishlariga aralashish mumkin emas. Tashqi kuchlar qatori, hatto diniy qatlam vakillarining ham aralashishi taqiqlandi. Monarx o‘z hududida diniy masalalarni hal etishda mustaqil bo‘ldi; uchinchidan, davlatlararo munosabatlar ular o‘rtasida tuzilgan shartnoma va kelishuvlarga qat’iy amal qilinishi orqali tartibga solinishi zarurligi belgilandi. Bu esa Yevropa davlatlariga keyinchalik o‘z milliy davlatchiligini hamda siyosiy millat sifatida birlashish imkoniyatini taqdim qildi. Vestfaliya tizimi zamonaviy suverenitetga oid yondashuvlar uchun ham asos bo‘lib rivoj topganligini ko‘rishimiz mumkin. Suverenitet esa davlat hokimiyatining mamlakat ichida eng oliy (absolut) va xalqaro maydonda boshqa davlatlardan mustaqil ekanligini bildiruvchi huquqiy maqomdir. Siyosiy falsafada Jan Boden va Tomas Gobbs tomonidan shakllantirilgan. U ichki (qonun chiqarish va tartib o‘rnatish ustuvorligi) va tashqi (tashqi ta’sirlardan xolilik) turlarga bo‘linadi. Mustaqillik bo‘lsa, davlatning siyosiy jihatdan boshqa biror ustuvor kuch yoki kolonial imperiyaga qaram emasligini ko‘rsatuvchi amaliy holatdir. Bu tushuncha ko‘pincha milliy ozodlik harakatlari va suveren davlat sifatida ajralib chiqish jarayonlari bilan bog‘liq. “Suverenitet” va “mustaqillik” tushunchalarini bir-biridan quyidagi asosiy mezonlar orqali farqlash mumkin:

Birinchidan, suverenitet ham ichki, ham tashqi siyosatda huquqiy yoki hokimiyat ustuvorligiga, mustaqillik esa ichki siyosiy erkinlikka tayanadi. Boshqacha aytganda, davlat o‘z hududida va tashqi dunyo bilan munosabatida o‘z taqdirini o‘zi erkin belgilash huquqiga egaligi, qaysi yo‘nalishda faoliyatini olib borishini boshqa tashqi kuchlar bilan hisoblashmasdan belgilay olishi uning suverenitetiga xosdir. Mustaqillik esa uning ichki siyosatida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, amaliyotda davlat suveren bo‘lishi mumkin, ammo xalqaro shartnomalar (masalan, Yevropa Ittifoqiga a’zolik) sababli o‘z mustaqilligining bir qismini ixtiyoriy ravishda cheklashi ham mumkin. Nega aynan mustaqilligining bir qismi deyishimizga sabab, davlat ushbu shartnomalardan chiqib keta olish imkonini o‘zida saqlab qolgani uchun ham suveren maqomda turaveradi;

Uchinchidan, suverenitet urush yoki okkupatsiya natijasida yo‘qotilishi mumkin. Mustaqillik esa davlat mavjud ekan, uning ichki oliy hokimiyati sifatida saqlanib qolaveradi (hatto tashqi bosim ostida bo‘lsa ham).

NATIJALAR. Shunday ekan, bizning fikrimizcha, milliy davlat deganda, muayyan zamon va makonda o‘xshash atributlar (til, din, tarix, dunyoqarash, axloq, turmush tarzi, qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va h.k.) negizida shakllangan, milliy o‘zligini anglagan aholi vakillaridan tarkib topgan suveren siyosiy tashkilotni tushunishimiz mumkin. Misol uchun, Markaziy Osiyodagi O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston kabi milliy davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy jihatdan o‘xshashliklari bisyor bo‘lib, aksar hollarda ularning tarixi, tili, diniy e’tiqodi yagona hisoblanadi. Postsovet o‘lkalarining aksar davlatlari (masalan, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya) aynan yuqorida sanab o‘tilgan o‘xshash atributlari bilan milliy davlat maqomidadir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning nomlanishida ham aslida shu narsa nazarda tutilgan. Ya’ni undagi «nation» atamasi aslida «milliy davlat» tushunchasining ifodasi hisoblanadi. Chunki BMTga millatlar emas, faqat suveren davlatlargina a’zo bo‘la oladi. Umuman olganda, bugungi aksar davlatlarning nomlanishi ham ularni «milliy davlat» deyishga asos bo‘ladi. Faqat federativ va konfederativ boshqaruvdagi davlatlar o‘ziga xos o‘rinda bo‘lib, ularni «ko‘pmillatli davlatlar uyushmasi yoki ittifoqi» desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki ushbu davlatlar tarkibidagi subyektlarda millatlar, dunyoqarashlar, tillar, e’tiqodlar turlicha, notekis taqsimlangan bo‘lib, bu rang-baranglik ularning o‘ziga xosligi hisoblanadi va siyosatida ham bag‘rikenglik tamoyili

ISSN 3060-5059 (Online)

ustuvor ahamiyat kasb etadi. Lekin federativ boshqaruvdagi davlatlar ham xalqaro maydonda bir-birini takrorlamagan holda, faqat o‘z milliy manfaatlarinigina ko‘zlab siyosat yuritishi ularni milliy davlatlar sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi. Bugungi kunda dunyodagi jamiki mamlakatlarda mana shunday milliylikni uchratish mumkin. Yevropa xalqlarining turmush tarzi, dunyoqarashi ham bir-biridan keskin farq qilmaydi. Shuning uchun ham Yevropa Ittifoqini norasmiy konfederativ davlat desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki ushbu tashkilot 27 ta suveren milliy davlatning ittifoqidir. Ular dunyoqarashidagi o‘zaro yaqinlik ittifoq mustahkamligi va barqarorligining muhim omili bo‘lib kelmoqda. To‘g‘ri, Breksit[1] jarayonlari ushbu ittifoqning parchalanishidek ko‘rinishi mumkin, lekin buning sababi ma’naviy emas, balki iqtisodiy, siyosiy omillarning ta’siridir. Qolaversa, Breksitni ovoz beruvchilarning sezilarli qismi yoqlamagani (16 141 241 ta ovoz yoki 48,1%), kelajakda Buyuk Britaniyaning ittifoqqa yana qaytishi mumkinligini istisno qilmaydi.

Milliy davlat suvereniteti deganda, muayyan zamon va makonda o‘xshash atributlar (til, tarix, din, dunyoqarash, axloq, turmush tarzi, qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va h.k.) negizida shakllangan, milliy o‘zligini anglagan aholi vakillaridan tarkib topgan siyosiy tashkilotning ichki va tashqi munosabatlarda to‘la mustaqilligi hamda mamlakat hududida davlat hokimiyatining ustuvorligi tushuniladi. Ushbu fikrga kelishimizga sabab, birinchidan, davlatchilik muayyan xalq tomonidan muayyan hududda va muayyan davrda tashkil etiladi. Buni tili, tarixi, dini, dunyoqarashi, axloqi, turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odat va an’analari o‘xshash yoki bir xil bo‘lgan xalqlar shakllantiradi. Misol uchun, o‘zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, bu yerlarda asosan til, din, dunyoqarash kabi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy atributlari o‘xshash bo‘lgan xalqlar istiqomat qilganligiga guvoh bo‘lamiz. Shunday ekan, ushbu xalq o‘sha makonning xavfsizligi uchun to‘la javobgar ham hisoblanadi; ikkinchidan, milliy davlat aholisining aksar qismi muayyan millat vakillaridan iborat bo‘ladi. Masalan, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 84,4 foizi yoxud 29,2 million nafarini o‘zbek millati vakillari tashkil etgani kabi. Shu nuqtayi nazardan, bu kabi tuzilmalarni milliy davlat deyishga to‘la asos bor; uchinchidan, milliy davlat va unda istiqomat qiluvchi xalqning ixtiyori o‘zidaligi, erk-irodasining hech qanday tashqi ta’sirlar vositasida chegaralanmaganligi uning mustaqilligi, suvereniteti asosi bo‘lib hisoblanadi; to‘rtinchidan, milliy makonda davlat hokimiyatining ustuvorligi, ya’ni davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan chiqarilgan normalarning butun mamlakat hududi va aholisi tomonidan e’tirof etilganligi.

O‘zbekiston misolida «mustaqillik» va «suverenitet» tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning huquqiy mazmuni va tarixiy shakllanish bosqichlari farqlanadi. 1990-yil 20-iyunda «Mustaqillik deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi davlat suverenitetini huquqiy jihatdan ifodalashdagi muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur hujjatda O‘zbekiston SSRning o‘z hududi va tashqi munosabatlaridagi davlat hokimiyati vakolatlari belgilandi. Jumladan, SSSR Oliy Soveti qarorlari O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq respublika Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina uning hududida kuchga ega bo‘lishi nazarda tutildi. 1991-yil 31-avgustda esa O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi rasman e’lon qilinib, uning huquqiy asoslari qonun bilan belgilandi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O‘zbekistonning suveren davlat ekanligi, 3-moddasida esa davlat chegarasi va hududining daxlsizligi hamda bo‘linmasligi belgilangan. Konstitutsiyaviy jihatdan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir (7-modda). Ushbu qoida davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko‘zlab, Konstitutsiya va qonunlar doirasida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Davlat hokimiyati vakolatlarini Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda o‘zlashtirish esa Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi.

XULOSA. XXI asrda globallashuv shiddati «milliy davlat» modelini transformatsiyaga uchratmoqda va quyidagi tizimli inqirozlarni yuzaga keltirmoqda: birinchidan, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar milliy davlatlarning iqtisodiy siyosatiga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Davlatlar o‘z bozorlarini himoya qilish va milliy valyuta ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish imkoniyatini qisman yo‘qotmoqda. Ikkinchidan, global axborot makoni (internet, ijtimoiy tarmoqlar) milliy madaniyatlar, tillar va qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Bu milliy davlatning asosiy ustuni bo‘lgan “umumiy milliy o‘zlik” tushunchasiga putur yetkazadi; uchinchidan, suveren huquqlarning xalqaro tashkilotlarga berilishi. Yevropa Ittifoqi kabi ustuvor tuzilmalar misolida ko‘rinib turibdiki, milliy davlatlar o‘z qonunchilik, bojxona va chegara nazorati huquqlarini umumiy markazga topshirishga majbur bo‘lmoqda. Bu milliy davlat konsepsiyasining klassik shaklini zaiflashtiradi. Bugungi kunda suverenitet an’anaviy harbiy hujumlardan ko‘ra ko‘proq gibrid va yashirin tahdidlarga duch kelmoqda. Tashqi suverenitetga tahdidlarda tashqi kuchlarning milliy axborot makoniga ta’sir o‘tkazishi, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishi va davlat kibertizimlariga (banklar, strategik obyektlar) hujum uyushtirishi tashqi suverenitetni zaiflashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Блинов А. Национальное государство в условиях глобализации: контуры построения политико-правовой модели формирующегося глобального порядка. – Москва, 2003. – С. 35.
2. Энгель В. Империя – национальное государство, или Доживет ли Россия до 2014 г.? // Мир и политика. – 2012. – № 10. – С. 15.
3. Левин И. Д. Суверенитет. – Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2003. – 19 с.
4. Гессен В. М. Общее учение о государстве. – Санкт-Петербург, 1912. – С. 56.
5. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Toshkent: Adolat, 2011. – B. 412.
6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B. 224.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.